

**O'QUVCHILARNING NUTQINI O'STIRISHDA DIDAKTIK
O'YINLARNING AHAMIYATI**

Qahramonov Aliboy Yolgoshevich

Filologiya fanlari nomzodi, ISFT instituti katta o'qituvchisi

Umirbayeva Nodira Mirsharapovna

Turayeva Rahila Yaxshibayevna

Saidova Dilrabo Qayumovna

ISFT instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-kurs talabalari

Annotatsiya: Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy operatsiyalarga katta ahamiyat beriladi. Ushbu jarayonda esa bizga pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar, didaktik o'yinlar yordamga keladi. Ushbu maqolada ham o'quvchilarning nutqini o'stirishda pedagogik texnologiyalardan, turli xil didaktik o'yinlardan foydalanish usullari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: nutq, fikr, o'yin, metod, ona tili, o'qish, o'quvchi, usul, shart, bola, guruh, matn.

Insonning shakllanishi va ma'naviy yuksalishida ona tili va o'qishning o'rni beqiyosdir. Barcha bilim va tajribalar ushbu fanlar orqali shakllantiriladi. Shuning uchun ham birinchi sinfdanoq ona tili va o'qish fanlarini o'qitilishiga alohida e'tibor qaratmoq joizdir. Zamon talabi asosida bu fanlarni pedagogik texnologiya va didaktik o'yinlardan foydalangan holda tashkillashtirish mumkin. O'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirishda quyidagi pedagogik texnologiyadan foydalangan holda darsslarni tashkillashtirish mumkin.

Tayyorgarlik davrida o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida mustahkam aloqa, do'stlik paydo bo'lishi uchun quyidagi savol-javob olib boriladi.

O'qituvchi:

- yuz-qo'llaringizni yuvib, nonushta qilib, maktab tomon yo'l oldingiz. Yo'lda kimlarni va nimalarni ko'rdingiz?

O'quvchilar ko'chalarni, uylarni, mashinalarni, daraxtlarni, binolarni, odamlarni va hokazolarni ko'rganlarini aytishadi.

O'qituvchi javob bergan har bir bolani rag'batlantiruvchi so'zlarni aytib ularning kayfiyatini ko'tarib boradi. Masalan, «Ofarin», «Barakalla», «Balli», «Raxmat» kabi so'zlarni aytadi. So'ng o'zaro bellashuv, musobaqa-bahs haqida tushuncha berib, savol beradi:

O'qituvchi: -Bolalar, siz musobaqa deganda nimani tushunasiz?

O'quvchilar: -Ikki guruhning o'zaro savol-javob yoki o'yin orqali musobaqalashuvini.

O'qituvchi: -Qanday musobaqa turlarini bilasiz?

O'quvchilar: -Birin-ketin bilgan musobaqa turlarini aytadilar: «Yugurish», «Kurash», «Shaxmat-shashka», «Futbol».

Sport o'yinlari tasvirlangan rasmlarni ko'rsatib, o'quvchilarni sport haqidagi bilimlari, tushunchasi oshiriladi.

O'qituvchi: -Balli! Sizlar musobaqani yaxshi bilar ekansizlar. Bugun biz ham «Kim ko'p so'z biladi» musobaqasini o'tkazamiz. Buning uchun biz 3 guruhga bo'linamiz. Sinfdagi har bir qator o'quvchilari bitta guruh bo'ladi. Guruhlar o'zaro maslahatlashib, o'zlari sevgan qushlar nomini qo'yadilar.

Musobaqa shartlari guruhlarga tushuntiriladi.

1. «Qaldirg'och» guruhiga: maktab haqida chiroyli so'zlar toping.

2. «Burgut» guruhiga: sinfigizga ta'rif bering.

3. «Kabutar» guruhiga: oila haqida nimalarni bilasiz? topshiriqlari beriladi.

O'qituvchi o'quvchilar topgan so'zlarni xattaxta yonida turib, har bir guruh aytgan so'zlarni chiziqlar bilan quyidagicha belgilab boradi.

I-Q	II-B	III-K
III	III	II
II	III	II
I	II	III
6	8	7

Guruhlar topgan so'zlar soni o'quvchilar bilan birgalikda jo'r ovozda sanaladi. Topgan so'zlarning soniga qarab o'rinnari

aniqlanadi. Har guruhning o'rni e'lon qilinganda, chapak chalib olqishlab, ular rag'batlantiriladi.

Quvnoq daqiqa: «Uchadi-uchmaydi» o'yini.

Bu o'yin bolalarni zukkolikka, xushyorlikka, hozirjavoblikka o'rgatadi, o'qituvchi rahbarligida o'tkaziladi. O'quvchilar parta yonida tik turib o'yinni bajaradilar. O'qituvchi uchadigan va uchmaydigan narsalarning nomini aytadi. Masalan:

O'qituvchi: -«Kabutar»!

O'quvchilar (jo'r ovozda): -«uchadi» deb qo'llarini ko'taradilar.

O'qituvchi: -«Kitob»!

O'quvchilar: -«Uchmaydi», deb parta yonida cho'kkalab o'tirib-turadilar. Shu tarzda o'yinni 2-3 daqiqa davom ettirish mumkin. Harakatlar davomida adashgan o'quvchilarni aniqlab, o'qituvchi ularni hushyor bo'lishga undab boradi.

Yangi mavzu: «Sinfim-faxrim».

O'qituvchi darslikdagi rasmlarni ko'rsatib, savol beradi:

- Bolalar, kitobda kimlar va nimalarning rasmini ko'rayapsiz?

O'quvchilar: - O'quvchi qiz va o'g'il bolani, sumka, kitob, daftar, ruchka, qalamni ko'rayapmiz.

O'qituvchi: -O'quvchi qiz nima qilayapti?

Sumka nima uchun kerak?

Ruchka bilan nima qilamiz?

Qalam bilan nima qilamiz?

Chizg'ich bilan nima qilamiz?

O'chirgich bilan nima qilamiz?

Bu savollarga javob olingach, o'qituvchi suhbat olib boradi.

Bolajonlar, siz juda bilimdon ekansizlar. Barchangizga ofarin! Biz maktabga bilim olish uchun kelamiz. Bilimni o'quv qurollarisiz egallab bo'lmaydi. Demak, biz har vaqt sumkamizga kerakli o'quv qurollarimizni solib kelishimiz kerak ekan. Ularni ota-onamiz mehnat qilib, topgan pullariga sotib olib beradilar. Har qaysi o'quv qurollarimizni avaylab-asrashimiz kerak.

Endi biz yana musobaqamizni davom ettiramiz. Guruhlarga mavzu asosida topgan so'zlarni qatnashtirib gap tuzish topshiriladi. Guruhlar to'planib, o'zaro maslahatlashib, gap tuzadilar. Qaysi guruh tayyor bo'lsa, yozadi, tuzgan gapini aytadi. O'qituvchi uni xattaxtaga yozadi.

Masalan:

Men matabga keldim.

Biz sinfimizni toza saqlaymiz.

Oilamizda hammamiz inoq bo'lib yashaymiz.

Tuzilgan gaplarni barcha o'quvchilar birgalikda o'qiydilar. Bu usul asosida o'quvchilarga o'qish, gap tuzish, so'zlarni bo'g'inlarga ajratish kabi bilim, ko'nikma, malakalar singdirib boriladi.

Musobaqaning bu bosqichini baholashda qancha ko'p so'z qo'llanilgani, gapning mazmuniga qarab o'rirlari belgilanadi.

Masalan: “Qaldirg'och” guruhi birinchi bo'lib uchta so'zni qatnashtirib, bitta gap tuzgan.

“Burgut” guruhi to'rtta so'zni qatnashtirib, bitta gap tuzgan.

“Kabutar” guruhi esa beshta so'zni qatnashtirib, bitta gap tuzgan.

Shu tariqa o'qituvchi rahbarligida gaplar tahlil qilinib, guruhlar o'rinalarini belgilaydi.

Natijalar e'lon qilinganda, o'quvchilar chapak chalib olqishlaydi.

Quvnoq daqqa: Boshni qimirlatamiz, qo'llarini qirsillatamiz, oyoqlarni bir joyga turib, harakatga keltiramiz, sekin joylarimizga o'tiramiz.

Bu mashqni barcha o'quvchilar hamjihatlik bilan bajaradilar.

Darsning yakunlanishi: Faol qatnashgan o'quvchilar qushlarning rasmlari chizilgan kartochkalar bilan rag'atlantiriladilar.

Tayyorgarlik davrida o'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi hamkorlikni faollashtirish zarur. Bu ular orasidagi do'stlik iplarini mustahkamlaydi. Bunda o'qituvchi muomala bilan bola ko'nglini topa bilishi, uning nima demoqchi ekanligini xatti-harakatlari, imoshoralaridan uqib olishi, yutug'i uchun rag'batlantirilib borishi, xatosi uchun koymasdan, yotig'i bilan tushuntirishi zarur.

“O'qish kitobi”dagi turli janrlarga xos bo'lgan badiiy asarlarni o'qish va ular

ustida ishlash orqali o'quvchilarning borliq, vogelik haqidagi tasavvur –tushunchalari kengayadi.

1-sinfda o'quvchilar ongli, turli va bir me'yorda bo'g'inlab o'qish malakasini egallaydilar. Ayrim nutq tovushlarining talaffuzidagi qiyinchiliklar bartaraf etiladi. O'quvchilar o'qigan

matnlarning mazmunini o'qituvchining yordamchi savollari asosida hamda kichik hajmdagi matn mazmunini unga ishlangan rasmdan foydalanib, so'zlab berishga o'rganib boradilar.

2-sinfda o'quvchilarda so'zni butunicha o'qish malakalari shakllanadi va ongli, to'g'ri, ifodali o'qishga intilish yaqqol seziladi. O'qish tezligi ortadi. Ayrim matnlarni ovoz chiqarmay mustaqil o'qiy boshlaydilar. O'qituvchi rahbarligida o'qilgan matndagi asosiy fikrni aniqlaydilar, undagi ayrim voqe - hodisalarini so'z bilan tasvirlashga o'rganadilar. O'qish va matnni savollar asosida hikoyalashda o'quvchilar nutqining to'g'ri va aniq bo'lismiga, nutqda so'zlardan o'rinni foydalanishlarga e'tibor beriladi.

3-sinfda o'quvchilar so'zlarni butunicha o'qish malakalarini to'la egallab, ongli va ifodali o'qishga ko'proq e'tibor beradilar. O'qilgan matn mazmunini mulohaza qilish, voqealar yo'nalishini aniqlash qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bu sinfda o'qilgan asarning badiiy – tasviriylar xususiyatlari ustida ishlash davom ettililadi. 3 – sinf o'quvchilariga o'zaro fikr olishuv jarayonida xalq maqollari va obrazli ifodalardan o'rinni foydalanish, adabiy talaffuz normalariga rioya qilishga o'rgatiladi.

4 –sinfda o'quvchilar matndagi so'zlarni butunicha ma'nosiga tushunib to'g'ri o'qish malakalarini to'la egallaydilar. O'qiganlari mazmunini qayta hikoyalash, matnni qismlarga bo'lish va sodda reja tuzish vazifalarini bajara oladilar. O'qish va gapirish jarayonida o'quvchilarning adabiy normalariga rioya

qilishlari talab qilinadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yuqorida belgilangan talablar asosida o'z ishlari natijasini nazorat qilib borishi kerak. O'qish darslarida darsning asosiy qismini o'quvchilarning o'qishiga ajratish lozim. O'quvchilar turli xildagi aniq topshiriqlar asosida bir necha marta o'qitiladi va o'qish mas'uliyatlari orttiriladi.

O'yinlar, xususan didaktik o'yinlar, bolalarning tabiiy ehtiyoji-harakatchanligiga juda mos keladi. Shuning uchun ham bolalar o'yinni juda sevadilar. Maktab yoshidagi kichik bolalarning nutqini o'stirishda o'yin muhim o'rinn tutadi. Didaktik o'yinlarning qariyb hammasida, masalan, "Bo'g'lnlarga ajrat", "Qaysi harfdan" kabi o'yinlarda harakat elementlari bolalarning jismoniy va aqliy o'sishlariga katta ta'sir etadi.

Bolalarda sezgirlikni va eshitish, ko'rish, harakat qilish qobiliyatini rivojlantirishda, ayniqsa didaktik o'yinlarning ahamiyati katta. Masalan, "Jimjitlik", "Nimani taqirlatyapti?", "Tuk-tuk", "Kim nimani eshityapti?" va boshqa shu kabi o'yinlarda bolalarning xotira va eshitish qobiliyati, shuningdek, diqqati o'sadi. Ilmiy metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan didaktik o'yinlarni bolalarning zo'r quvonch bilan o'ynashi tajribada hamisha ko'zga yaqqol ko'rinish turadi. Har bir o'zin mobaynida bolalarning diqqati, zehni taraqqiy etib boradi. O'qish paytida bolalar bir-birlarining harakatlarini kuzatadilar, hech narsani ko'zdan qochirmslikka, o'zin qoidalarini va berilgan vazifalarini esda saqlab qolishga tirishadilar. Bundan tashqari o'zin paytida o'quvchilar oldin o'rganilgan materiallarga asoslanib ish tutadilar, natijada bu material bolalar xotirasida yana ham mustahkam o'rashib qoladi. Didaktik o'yinlar bolalarda har bir narsani bilishga intilish hissini uyg'otadi, ularning aqliy ish bilan aktiv shug'ullanishiga imkon beradi, kuzatuvchanlik, narsa va hodisalarni taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, aniqlash qobiliyati hamda nutqi o'sa boradi.

"Didaktik o'yinlar birinchi va ikkinchi signal sistemalari birligini, ko'rsatmalilik, so'z va harakat birligini mustahkamlaydi. Didaktik o'yinlarda o'quvchi o'qituvchining birorta gapini ham eshitmasdan qolmasligi kerak, aks holda, o'quvchi o'zin qoidasini yaxshi bilib ololmaydi, o'zin topshirig'ini o'z vaqtida bajara olmaydi, boshqalardan orqada qolib ketadi". Shu nuqtai nazardan bolaning xotirasini, diqqatini mustahkamlashda, so'z boyligi va nutqini normal o'stirishda didaktik o'yinlarning katta ahamiyati bor. Bolalar o'zin boshlanishini sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi.

"O'zin paytida bolalar psixikasining individual xususiyatlari, ularda shartli reflekslarning paydo bo'lish tezligi va ularning mustahkamligi yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Bu esa o'qituvchiga o'quvchilar faoliyatiga individual munosabatda bo'lish imkonini beradi".

Didaktik o'yinlarning eng soddalaridan biri "Davom ettir" o'yinidir. Bunda o'qituvchi bir so'zning boshlanishini, ya`ni birinchi yoki birinchi va ikkinchi bo'g'inini aytadi, o'quvchilar esa uni davom ettiradilar. Bu o'yinda ishlataladigan so'zlar ikki-uch bo'g'indan

oshmasligi kerak. Bunday so'zlarni bolalarning Gul-nor, Xol-mat, Jo'-ra, No-di-ra, A-za-mat kabi ismlaridan boshlash maqsadga muvofiqdir. Keyin esa sha-mol, lay-lak, tul-ki, bo-la, uch-di, o'y-na-di kabi narsa va ish-harakat nomlari aytildi. O'yin oxirida o'qituvchi bir-biriga o'xshash 3 - 4 so'z aytadi. Masalan: Nodira-Nazira, Normat-Xolmat, Non-don, suv-sut, choy-soy kabi. Keyin bolalarga shu singari so'zlarni o'ylab topishni aytadi. Didaktik o'yinlardan topishmoq, tez aytish kabi o'yinlar ham ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga, bolalarga ruhiy oziq beradi.

Shuni eslatib o'tish joizki, ona tili va o'qish darslarida qo'llash uchun tavsiya qilinayotgan didaktik o'yinlar foydalanishiga qat'iy chegara mavjud bo'lmay, boshqa yuqori sinflarga ham moslashtirib foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`Q.Tolipov va M.Ulmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent.Fan. 2006.
2. Sobirova M. Matn ustida ishlash jarayonida o'quvchi so'z boyligini oshirish. Til va adabiyot ta'limi. Toshkent. 1998.
3. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi. 1985-yil.
4. S.Matjonov. X.G'ulomova, M.Suyunov, H.Boqiyeva "Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish", – T., 2008-yil.
5. T. G'afforova. "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar", – T., 2011-yil.
6. G'ulomov A. Ona tili o'qitish printsiplari va metodlari. T.: O'qituvchi, 1992
7. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, SH.Yo'Idosheva. SH.Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. T., Noshir, 2009.
8. Mehriddinov Z. Isamuhammedov O. "Boshlang'ich ta'lim saboqlari" Toshkent 2014.
9. Dehqanova M.U., Djanaliyeva G.A. Ta'lim metodlarini tanlash mezonlari va muammolari. Ta'lim texnologiyalari. T., 2006-yil
10. Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o'stirishdan tarqatma materiallar. T., «O'qituvchi», 2003- yil.